



TA'LIM TIZIMIDA UZLUKSIZLIK VA UZVIYLIK TAMOYILI HAMDA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Eshbekova Dilafro'z To'ychiyevna

*Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),*

Akmanova Sayyora Alimbayevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lif tizimida uzlucksizlik va uzviylik tamoyillari, uning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Ta'lif tizimidagi bu tamoyillar, uning jihatlari, mamlakatimizdagi ta'lif tizimining xususiyatlariga solishtirilgan holda, mavjud adabiyotlar tahlili asosida yoritib berildi.

Kalit so'zlar: ta'lif tizimi, uzlucksizlik va uzviylik tamoyili, "Ta'lif to'g'risidagi" qonunlar, ta'lif tizimining ahamiyati, B.G.Ananyev, Sh.I.Ganelin, uzviylik tushunchasi, uzlucksiz ta'lif tizimi.

Ta'lif tizimi odatda, barcha muassasalarning tuzilishini va mamlakatda ta'lif olish imkoniyatlarini anglatadi. U oilaviy ta'lif yoki maktabgacha ta'lifdan tortib, bolalar bog'chasi, boshlang'ich, o'rta va so'ngra litseylar, kollejlar va Oliy ta'lif (Institut va Universitet ta'limi) deb nomlanuvchi fakultetlarga bo'lgan barcha maktabgacha ta'lif sohalarini o'z ichiga oladi. Ushbu turkumga doimiy kasbiy va shaxsiy ta'lif muassasalari, shuningdek, xususiy ta'lif muassasalari ham kiradi.

Ta'lif tizimi asosan mamlakatning tegishli qonunlariga muvofiq ravishda tartibga solinadi va tashkil etiladi, ammo mamlakat ta'lif tizimida tartibga solinmagan ba'zi jihatlari ham bo'lishi mumkin. Odatda, ta'lif tizimi mamlakat



jamiyatining barcha qatlamlari va va asosan xalq uchun ta'lim berishga mo'ljallangan. U aholini o'qitish bilan bog'liq barcha sohalarni o'z ichiga oladi[2].

Ta'lim sohasi mamlakat taraqqiyotining strategik yo'nalishi hisoblanadi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 1992-yil va 1997-yillarda qabul "Ta'lim to'g'risidagi" qonunlari sohaga bo'lgan e'tiborning qay darajada ahamiyatli ekanligini belgilaydi Qonunda maktabgacha ta'limdan boshlab, umumiyl o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'limning uzviyligini, mazmun jihatdan ketma-ketligini ta'minlashga alohida ahamiyat berilgan[5].

Shu nuqatayi nazardan bir narsaga e'tibor qaratsak, Ta'lim dasturlarini mazmunan uzlucksiz va uzviylik tamoyili asosida tayyorlashga erisha olsakkina, mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir qiladigan pedagogik tizimni joriy eta olishimiz mumkin.

Mavjud adabiyotlar tahlili va ma'lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, ta'limda uzviylik ikki xil turda qo'llaniladi. Ular quyidagilar: Birinchidan, ta'lim turlari (bo'g'inlari) orasidagi uzviylik. Bunda ta'limning keyingi turi mazmuni avvalgisini qisman takrorlab, mazmun jihatidan uzviy bog'langan holda uning keyingi ta'lim turlarida davom etadi.

Ikkinchidan, o'quv fanlari orasidagi uzviylik. Bu odatda fanlararo yoki predmetlararo bog'lanish orqali amalga oshiriladi. Uzviylik tushunchasi uzlucksiz ta'lim tizimining har bir turida o'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablarni xarakterlaydi. Uzviylik o'quv materialining muayyan ketma-ketlikda, tizimli joylashtirilishi, bilimlarni o'zlashtirishda mavjud bilimlarga tayanish, o'quv materialining ma'lum darajada navbatdagi bosqichlarda qo'llanilishi, o'quv-tarbiya jarayoni bosqichlarining davomiyligini anglatadi[8]. Mazkur hodisa o'quv predmeti materiallarini joylashtirish hamda ushbu predmet (fan) asoslarini o'zlashtirish faoliyati turlarining samarali tanlanishiga yordam beradi.



Pedagogika sohasiga oid adabiyotlarda uzviylik tushunchasiga turlicha ta‘riflar berilgan. Masalan, B.G.Ananyev «uzviylik» tushunchasiga quyidagicha ta‘rif beradi: «Ta’limdagi uzviylik o’quvchilar fan asoslarini egallash jarayonida olgan bilimlar tizimining vaqt nuqtai nazaridan rivojlanishidir». Sh.I.Ganelin fikricha, «...uzviylik - bu o’quvchilar tomonidan o’rganilayotgan o’quv materiali uchun tayanch bo’luvchi mavjud bilim, ko’nikma va malakalarning amalda shunday qo’llanilishi va istiqbol rivojlanishidirki, ular asosida bilimlar o’rtasida turli aloqalar yuzaga keladi, kursning asosiy g’oyalari ochiladi, eski va yangi bilimlarning o’zaro aloqadorligi ta‘minlanadi, natijada o’quvchilarda puxta va chuqur bilimlar tizimi shakllanadi»[3].

O’tmishdagi aksariyat buyuk pedagoglar, jumladan Ya.A.Komenskiy, J.Lokk, I.G.Pestalotsi, A.Disterveg, I.F.Gerbert, O.Vilman, K.D.Ushinskiy va boshqalar fanlararo, kurslararo va fan ichidagi o’zaro aloqalarni o’rnatish zarurligi masalasiga jiddiy e’tibor berib, bu muammoni to’g’ri hal etilishi puxta va sistemalashgan bilim asoslarinishakllantirish omili hisoblaganlar. Chunki, tarixiy bosqichlarda to’plangan bilimlarni o’ziga xos ravishda jamlagan falsafa fanidan keyinchalik, xususan Uyg’onish davrida, insoniyat bilimlarining gurkirab rivojlanishi sharoitida mustaqil fan tarmoqlari ajralib chiqa boshlagan. Natijada, fanlarni tabaqlashtirish jarayoni boshlanib, bu o’z navbatida maktab predmetlari orasidagi tabiiy, dialektik aloqalarni ham buza boshladi. Bu esa tabiatdagi narsa va hodisalarining o’zaro bog’liqligi va o’zaro munosabatlari (butun borliq muvozanatdan, ya’ni o’zaro bog’liqlikdan iborat ekanligi) haqidagi o’quvchilar tasavvurini toraytirib, sxolastik(puch) va tarqoq bilimlarga olib keldi[7].

Ba’zi tadqiqotlarda esa uzviylik qonuniyat, tamoyil, omil, sharoit, usul, qoida, vosita sifatida e’tirof etiladi. «Tor ma’noda uzviylik jarayoni - bu ta’limning turli bosqichlari orasidagi ketma-ketlik uzhishlarini to’ldiruvchi pedagogik namoyishlarning tartibi. Keng ma’noda - bu namoyishlar pedagogik faoliyatning umumiyligiga kiritiladi»[3]. Shunday qilib, uzviylik tushunchasi ko’pchilik



tadqiqotchilar tomonidan tizimlilik va ketma-ketlik tamoyillari bilan bog'langan (binobarin, ketma-ketlik o'quvtarbiya jarayonining tartibini, bo'g'in va aloqalarni aniqlashtirish, belgilashning o'zi yetarli emasligi bois metodikaning barcha elementlarini qayta ko'rib chiqish zarur.

Demak, uzviylikning barcha metodik jihatlari - ta'lim mazmuni, tarkibiy tuzilmasi, shakllari, metodlari va vositalari uzviyligining ta'minlanishi har bir fanda o'qitish jarayonini takomillashtirishga, uning aniq masalalarini hal etishga bog'liqdir. Shunday qilib, ta'lim-tarbiyani tashkil qilish va boshqarishga doir respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar maqsadi ta'lim sub'ektlarining yagona maqsadga erishish, muayyan darajada umumiy ma'lumot darajasi va kasbiy tayyorlarligiga ega bo'lgan har tomonlama rivojlangan shaxsni tarkib toptirishga qaratilgandir. Uzluksiz ta'lim - o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va birbirini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash tizimining asosi, ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri.

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida alohida tamoyil sifatida qayd etilgan. Uzluksiz ta'lim milliy modelning asosiy tarkibiy qismlaridan biri, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiytexnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxe shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shartsharoitlar yaratadi[7]. Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar



malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’limni o‘z ichiga oladi.

Respublika maktablaridagi tarix ta’limining xususiyati ikki mustaqil kurs sifatida o’qitiladigan jahon va O’zbekiston tarixining eng qadimgi davridan hozirgi kungacha ro’y bergan voqeа va jarayonlarini xronologik izchillikda o’rganishdan iborat. Garchi, T. Toshpo’latov, A. Sa’diev, B. Abdullayeva, Y. G’afforov, Sh. Mardonov, B. Boymetov, U. Xodjamqulov, J. Abduraxmanova, S. Toshtemirova kabi olimlarning ilmiy ishlari, maqola va qo’llanmalarida jahon tarixi va O’zbekiston tarixi kurslarini o’zaro aloqadorlikda o’rganish xususida fikr yuritilgan[6].

Uzluksiz ta’limning faoliyat ko‘rsatish tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ta’limning ustuvorligi-uning rivojlanishining 1 darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta’lim va yuksak intellektning nufuzi;
- ta’limning demokratlashuvi — ta’lim va tarbiya uslublarini tanlashda o‘quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta’limni boshqarishning davlatjamiyat tizimiga o‘tilishi;
- ta’limning insonparvarlashuvi — inson krbiliyatlarining ochilishi va uning ta’limga bo‘lgan turlituman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta’minlanishi, inson, jamiyat va atrofmuhit o’zaro munosabatlarining uyg‘unlashuvi;
- ta’limning ijtimoiylashuvi — ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- ta’limning milliy yo‘naltirilganligi — ta’limning milliy tarix, xalq an’analari va urfodatlari bilan uzviy uyg‘unligi, O’zbekiston xalklarining madaniyatini saklab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalklarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;



- ta'lim va tarbiyaning uzviy boglikligi, bu jarayonning qar tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish[9].

Uzluksiz ta'lim ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. O'zbekistonda mакtabda o'qish majburiy hisoblanadi. Ta'lim tizimi yagona va uzluksiz bo'lib, ta'lim turlariga ko'ra quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiyoq o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim[10].

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib ta'lim tizimidagi uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga to'xtalib o'tamiz. Tarix ta'limining uzviyligi va uzluksizligi tamoyili tarix o'quv fani mazmunining uzviyligini o'rnatishda muhim o'rin tutadi. Bu tamoyil didaktikaning muhim tamoyili – oddiydan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga qarab borishda va oldingi o'zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda keyingilarini o'zlashtirishga tayyorlash omili sifatida kirish, umumlashtiruvchitakrorlash darslarini o'tkazishga mas'uliyatni oshiradi. U DTS, o'quv rejalar, dasturlar, darsliklarda materiallarning bir-biri bilan mantiqiy bog'liq bo'lishini, ta'limning har bir bosqichida ma'lum darajada bilim ko'nikma va



malakalarni shakllantirishni talab qiladi hamda yoshlar tarixiy onging shakllanishiga muvofiq tarzda fan yutuqlarini o'zlashtirib borishni ta'minlaydi.

Ma'lumki, umumiyl o'rta ta'lim maktablarida har bir davr tarixi bir marta o'qitilib, yuqori bosqichlarda takrorlanmaydi. Bundan mustasno holda 5-sinf tarixdan hikoyalar kursida esa qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan muhim tarixiy voqealar fan asoslari sifatida emas, balki epizodik (voqeaband) hikoyalar tarzida o'rganilishi sababli undagi mavzular xronologik izchilllikka uncha asoslanmaydi.

Shuningdek, tarixiy jarayondagi yangi faktning o'rnini aniqlashga, uni tarix bilimlari tizimiga kiritishga yordam beradi. Bu tamoyil ikkita tarix kursini o'zaro aloqadorlikda o'rganishda tarixiy materiallar bir-birini takrorlamagan holda, bir-birini to'ldirishini nazarda tutadi. Umuman, tarixiy materialni xronologik izchilllikda bayon qilinishi o'quvchilar tarixiy bilimlarini tizimlashtirib, uning uzviyligini ta'minlash bilan birga yangi tarixiy faktlarni yaxshiroq o'zlashtirishga xizmat qiladi[1].

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkonini tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi"[4].

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida



oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Xulosa o'mida aytadigan bo'lsak, Ta'lim tizimi asosan mamlakatning tegishli qonunlariga muvofiq ravishda tartibga solinadi va tashkil etiladi. Odatda, ta'lim tizimi mamlakat jamiyatining barcha qatlamlari va va asosan xalq uchun ta'lim berishga mo'ljallangan. U aholini o'qitish bilan bog'liq barcha sohalarni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimidagi uzviylik va uzlusizlik tamoyillariga to'xtalsak, Tarix ta'limining uzviyligi va uzlusizligi tamoyili tarix o'quv fani mazmunining uzviyligini o'rnatishda muhim o'rinn tutadi. Bu tamoyil didaktikaning muhim tamoyili— oddiydan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga qarab borishda va oldingi o'zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda keyingilarini o'zlashtirishga tayyorlash omili sifatida kirish, umumlashtiruvchitakrorlash darslarini o'tkazishga mas'uliyatni oshiradi.

Demak, tarixiy materialni xronologik izchillikda bayon qilinishi o'quvchilar tarixiy bilimlarini tizimlashtirib, uning uzviyligini ta'minlash bilan birga yangi tarixiy faktlarni yaxshiroq o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tarixiy jarayondagi yangi faktning o'mini aniqlashga, uni tarix bilimlari tizimiga kiritishga yordam beradi. Bu tamoyil ikkita tarix kursini o'zaro aloqadorlikda o'rganishda tarixiy materiallar bir-birini takrorlamagan holda, bir-birini to'ldirishini nazarda tutadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduraxmanova J. N. Tarix fanini o'qitish usullari va ularning samaradorligi // Ta'lif, fan va innovatsiya. Toshkent. 2019. 35-39-b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent. 2017. 146-b.
3. Saparova S. Ta'lif tizimida uzviy va uzlucksiz ta'lif turlari qo'llanishining psixologik jihatlari. Innovative developments and research in education. International scientific-online conference. Canada. 2022. 325-327-b.
4. Ta'lif tizimi va yangicha yondashuvlar. www.yuz.uz internet sayti
5. Toshtemirova S. A. Ta'lif sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzlucksiz ta'lif. № 1 (86). 2020. 15-b.
6. Toshev S. Tarix fanini o'qitishnda zamonaviy yondashuvlar. Science and Education, 1 (Special Issue). 2020. 6-8-b.
7. Tursunov F., Turopov U. Tarix ta'lifimda kurslararo uzviylikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlari. Academic research in educational sciences. Scientific Journal Impact Factor (SJIF). Academic research, Uzbekistan. 2020. 603-605-b.
8. Zamilova R. R. Uzlucksiz ta'lif pedagogikasi va inklyuziv ta'lif. Darslik. Namangan. 2023. 122-123-b.
9. G'afforov. Y.X. Maktab islohoti va o'qitish metodlarini takomillashtirish. Science and education. Sgientific Journal. 2020. 482-b.
10. www.wikipedia.org. internet sayti